

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
REKTORI**

Sh.A.Boymuradovga
F.L.Azizovaga

O'rnatilgan tartibda o'rganib chiqib,
ijrosini taminlashingizni so'rayman

Muddat 5 kun


A.K.Shadmanov

"5" 10 2022 y



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

2022 yil "3" oktabr

08-30321 - son

**Qoraqalpog'iston Respublikasi
sog'liqni saqlash vazirligi,
Toshkent shahar sog'liqni saqlash
Bosh boshqarmasi, viloyatlar
sog'liqni saqlash boshqarmalari,
Vazirlik tasarrufidagi tibbiyot
Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy
tashkilotlarga
Prezident Administratsiyasi
huzuridagi Tibbiyot bosh
boshqarmasiga**

**Buxoro davlat tibbiyot instituti tomonidan rejalashtirilgan "Klinik
farmakologiyaning zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi
IV xalqaro Markaziy Osiyo Kongressini o'tkazish to'g'risida**

KO'RSATMA XAT

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2022 yilga mo'ljallangan asosiy tashkiliy tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. **2022 yilning 24-25 noyabr** kunlari Buxoro shahar Turon Plaza mehmonxonasi anjumanlar zalida Buxoro davlat tibbiyot instituti tomonidan rejalashtirilgan **"Klinik farmakologiyaning zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari"** mavzusidagi IV xalqaro Markaziy Osiyo Kongressi o'tkazilsin.

2. Kongress ishtirokchilari o'rinlari taqsimoti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori (Sh. Teshayev), Fan va ta'lim boshqarmasi boshlig'i (U. Ismailov), Davolash-profilaktika yordamini tashkillashtirish bosh boshqarmasi boshlig'i (U. Riskiyev) anjumanga puxta tayyorgarlik ko'rgan holda, belgilangan muddatda yuqori ilmiy va tashkiliy saviyada o'tkazilishini ta'minlasin.

4. Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori (Sh. Teshayev):

- sertifikatlarni tayyorlash va anjuman ishtirokchilarini o'rnatilgan tartibda sertifikatlar bilan ta'minlash amalga oshirilsin;

- kongressni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan barcha sarf-xarajatlar homiyar va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan qoplanishi nazarda tutilsin;

**TOSHKENT TIBBIYOT
AKADEMIYASI
DEVONXONA**
2022 y. 6.10.04-03/218

- anjuman epidemiologik holatni inobatga olib, qat'iy profilaktik choralar ko'rilgan holda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagi 205-son Qarori bilan tasdiqlangan "Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalari"ga muvofiq o'tkazilishi va kongress o'tkazilganligi to'g'risida hisobotni 3 kun muddat ichida Fan va ta'lim boshqarmasiga taqdim etilishi ta'minlansin.

5. Tadbir ishini ommaviy axborot vositalari orqali yoritish Matbuot va PR xizmati rahbari F.Sanayevga yuklatilsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri, Toshkent shahar Sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi, viloyatlar Sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari, tibbiyot oliy o'quv yurtlari rektorlari, ilmiy-tashkilotlar direktorlariga ilovaga muvofiq anjuman ishida qatnashish uchun o'z vakillarini qatnashishini ta'minlasin.

7. Ushbu ko'rsatma xat ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

**Vazirning birinchi
o'rinbosari**



A.Inoyatov

Ijrochi: N.Arifdjanova
ID: 84984
Sana: 03.10.2022